

## OILADAGI AJRIM MUAMMOSNI OLDINI OLIHNING DINIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

*Din ishlari bo'yicha qo'mita bo'lim boshlig'i*  
*p.f. PhD, dots.v.b., Iroda Ahmedova Shohidebekovna*  
*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*  
*Psixologiya mutahassisligi II bosqich magistri*  
**Tojiddinova Layloxon Shokirjon qizi**  
*tojiddinoyalayloxon2@gmail.com*  
*+998959694140*

### Annotatsiya

Ushbu maqolada oiladagi ajrimlar muammosi, ularning kelib chiqish sabablari hamda ajralishlarning salbiy oqibatlarini oldini olishda diniy-psixologik yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilingan.

Shuningdek, maqolada psixologik omillar, jumladan, emotsional intellekt, ijobiy mulohaza ko'nikmalari, oilaviy konsultatsiya, konfliktologiya va psixoprofilaktika mexanizmlarining oila barqarorligi uchun tutgan o'rnini yoritilgan. Diniy-psixologik integratsiyalashgan yondashuv oilaviy nizolarni bartaraf etishda, er-xotin munosabatlarida mehr-muruvvat, bag'rikenglik, mas'uliyat va murosa fazilatlarini rivojlantirish orqali ajrimlarning oldini olishda muhim vosita ekanligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** nikoh, oila, ajrim, inqiroz, oila a'zolar, er-xotin, status, akseleratsiya, adaptatsiya.

### Annotation

This article analyzes the issue of family divorce, its root causes, and the importance of religious and psychological approaches in preventing the negative consequences of marital breakdown. The paper highlights key psychological factors—such as emotional intelligence, positive communication skills, family counseling, conflictology, and psychoprophylactic mechanisms—that play a significant role in ensuring family stability. It is emphasized that an integrated religious-psychological approach is an effective tool in preventing divorce, as it helps foster compassion, tolerance, responsibility, and compromise within marital relationships, while also facilitating constructive resolution of family conflicts.

**Keywords:** marriage, family, divorce, crisis, family members, spouses, status, acceleration, adaptation.

### Аннотация

В данной статье анализируется проблема семейных разводов, причины их возникновения, а также значение религиозно-психологического подхода в предотвращении негативных последствий распада семьи. В работе освещаются

психологические факторы, такие как эмоциональный интеллект, навыки позитивной коммуникации, семейное консультирование, конфликтология и механизмы психопрофилактики, которые играют важную роль в укреплении семейной стабильности. Подчеркивается, что интегрированный религиозно-психологический подход является эффективным средством профилактики разводов, так как способствует развитию милосердия, терпимости, ответственности и готовности к компромиссу в супружеских отношениях, а также помогает конструктивно преодолевать семейные конфликты.

**Ключевые слова:** брак, семья, развод, кризис, члены семьи, супруги, статус, акселерация, адаптация.

**KIRISH O'rta Osiyoda oila jamiyatning asosiy negizi, uning mustahkam poydevori hisoblanadi.** Oilaning muqaddasligini, farovonligini ta'minlashda, birinchi navbatda, ayolning o'rni beqiyos. Shu o'rinda Birinchi Prezidentimizning quyidagi sermazmun so'zlarini hayotga tatbiq etish davr talabi bo'lib qolmoqda: **“Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarini saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor”, “Ayol baxtli bo'lsa, oila tinch, jamiyat esa barqaror bo'ladi.” Mustahkam oilalardan tashkil topgan mamlakat, albatta, qudratli bo'ladi.** Oila — ota, ona va farzanddan iborat uchta tirkakka quriladi.

Oilaning baxt-saodati, kamoli va farovonligi, tinchligi va osoyishtaligi aynan ana shu uch ustunning bir-biriga bo'lgan munosabati, ahilligi va yaxshi tarbiyasiga bog'liq. Agar bu jihatlari yo'qolsa, oila tanazzulga yuz tutadi. Bu inqiroz esa o'z navbatida jamiyatni larzaga keltiradi.

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-bobi “Oila, bolalar va yoshlar” deb nomlangan bo'lib, 76-moddasida** quyidagilar belgilangan: *“Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratadi.”*<sup>1</sup>

**O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 2-moddasida** esa shunday deyilgan: *“Oilaviy munosabatlarda ayol va erkak teng huquqlidir. Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga*

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrir) / Qabul qilingan 2022-yil 30-aprelda referendum yo'li bilan. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

*yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.<sup>2</sup>*"

**ADABIYOTLAR TAHLILI METODIKA.** Oiladagi ma'naviy sog'lom muhitni yaratish ham ota, ham onaga bog'liq. Ba'zan jahl ustida ota-onaning nomaqbul harakati o'rtadagi ishonchning yo'qolishiga, muhabbatning tanazzulga yuz tutishiga sabab bo'ladi. Bu holat esa ota-ona va farzandlar o'rtasida oqibatsizlik, jamiyatdan norozilik, oilada notinchlik, beparvolik, loqaydlik, jahldorlik kabi salbiy holatlarni yuzaga keltiradi. Bunday nosog'lom muhitda tarbiyalangan bolalarda xiyonatga, axloqsiz xatti-harakatlarga (ichish, chekish, o'g'rilik, jinoyatchilik, giyohvandlik va boshqalar) moyillik kuchli bo'ladi.

Er-xotin, qaynona-kelin o'rtasidagi ziddiyat va tushunmovchiliklar, og'ir iqtisodiy sharoit, hayotga yengiltaklik bilan yondashish kabi illatlar oila buzilishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, ishsizlik, moddiy qiyinchilik, ruhiy tushkunlik, uy-joy muammosi, bolalarning turli salbiy oqimlarga kirib qolishi va boshqa omillar ham ajrimlarning sabablari sirasiga kiradi.

**Xalqaro tashkilotlar**, xususan **Birlashgan Millatlar Tashkiloti** tomonidan har yili nikohdan ajrashishlarning global koeffitsiyenti e'lon qilib boriladi. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha ajrashishlarga juftliklar o'rtasidagi mos kelmaslik, xiyonat, giyohvandlik, spirtli ichimliklarga ruju qo'yish, moddiy yetishmovchilik, jismoniy va ruhiy zo'ravonlik kabi omillar kuchli ta'sir ko'rsatmoqda.

**O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi** ma'lumotlariga ko'ra, **2021-yilda** mamlakatda **39 227 ta nikoh bekor qilingan bo'lsa, 2022-yilda** bu ko'rsatkich **48 734 taga yetgan, ya'ni ajrimlar soni 24 foizga oshgan**

Bugungi kunda O'zbekistonda oilaviy ajrimlar dolzarb ijtimoiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ajrashishlarning oldini olish uchun yoshi katta onaxonlar, mahalla faollari va mutasaddi idoralar birgalikda muammolarga yechim izlashlari zarur. Zero, islom dinida har bir buzilgan nikoh uchun **Arshi a'loni larzaga keltirishi** alohida ta'kidlangan.

Oiladagi ajrimlar farzandlarning tirik yetim bo'lib qolishiga, jamiyatda ana shunday "tirik yetimlar" sonining ortishiga sabab bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Albatta, farzandni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda ota-onaning zimmasiga katta mas'uliyat yuklatilgan.

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida** esa quyidagilar qayd etilgan: *"Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishlari, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi*

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrir) / Qabul qilingan 2022-yil 30-aprelda referendum yo'li bilan. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

*xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.*"<sup>3</sup> Arzimagan vajlar tufayli oilani barbod qilish, albatta, bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir etadi. "Bolani uvoli tutadi", degan gaplar ham o'z-o'zidan paydo bo'lmagan, albatta. Afsuski, uvol-savobni bilmaydigan, norasidalarining yetim qolishini o'ylamaydigan ota-onalar ham oramizda yo'q emas. Yana shunday holatlar borki, hozirgi kunda ba'zi ayollarimiz hali qonuniy ajrashmasdan turib, voyaga yetmagan farzandlarining kelajagini o'ylamasdan, sabr nimaligini bilmasdan, "qayerda xato qildim ekan?" demasdan, shar'iy nikoh asosida boshqa fuqaro bilan turmush qurib, homilador bo'lmoqdalar. Bu ham ularning sabrsizligi, uzoqni o'ylamasligi hamda nikohning mas'uliyatini chuqur anglamasligidan dalolat beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR Bo'yi yetgan qiz maktabni tugatishi bilan turmushga berilgan. Uning na ilmi va na hunari bo'lgan. Kelin bo'lib tushgan xonadonida uy yumushlarini bajarishdan boshqa ishi qolmagan. Qaynona va qaynsingilning ruhiy zo'ravonligi, bolalarining unga nisbatan salbiy munosabati mazkur oilada doimiy ravishda janjallarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Mahalladagi "Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash" komissiyasi a'zolari hamda reabilitatsiya markazidagi psixolog hamkorligidagi sa'y-harakatlar bilan munosabatlar birmuncha yaxshilandi. Eng asosiysi, kelinchakka hunar o'rganishiga imkoniyat yaratildi. Natijada kelin ishga joylashdi va uning oiladagi mavqeyi birmuncha mustahkamlandi. Qaynona ham endi keliniga bekorchi deb emas, balki oilaning teng huquqli a'zosi sifatida qaray boshladi.

Shu o'rinda mahalla – oilaning eng yaqin maslahatchisi, tog'day tayanchi ekanligini aytib o'tmoqchimiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Mahalla – tinchlik va osoyishtalik poydevori, ahillik va hamjihatlik, ma'rifat va tarbiya qo'rg'onidir." Oilaviy ajrimlarning oldini olish borasida hukumat tomonidan barcha qonunlar qabul qilinmoqda va tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Oilaviy ajrimlarning oldini olish maqsadida hukumat tomonidan barcha qonunlar qabul qilinmoqda va tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bundan kelib chiqadiki, mahallada ajrim yoqsiga kelib qolgan har bir oila bilan alohida ish olib borishni amalga tatbiq etish zarurdir. Ijtimoiy tarmoqlarda «oilaviy ajrimlarga asosiy sabab nima deb o'ylaysiz?» savoli bilan o'tkazilgan kichik so'rovnomada ham tarmoqning aksariyat foydalanuvchilari urfodatlar, qaynonaning kelinga soliq solishi, kuyovning esa kelin tomondan mulk tama qilishi, kelinning ota uyiga «gap tashishi», telefon va ijtimoiy tarmoqlar, yoshlarning na fikrlash, na pul topish borasida mustaqil emasligi, yigitlarning o'z so'zini o'tkazishga harakat qilishi, qizlarning esa «xo'p»dan yiroqligi, diniy bilimdan bexabarlik, o'zaro hurmat tushunchasining yo'qolishi, besabrlik, aybini tan olmaslik kabilarni sanab o'tishdi.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. "Oila holati bo'yicha statistik axborot", 2023-yil — <https://stat.uz>

XULOSA o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ajrashish arafasida turgan, ajrim qayd etilgan oilalarning muammolari birbiriga o'xshamaydi. Ammo har biri o'z yechimiga ega, ajrimga qadar oilani saqlab qolishning imkoniyati ancha yuqori bo'lgan. Islom dini aqidasi ko'ra, ota-onaning xizmatini ado etish farzandlarning bo'yniga qarzdir, kelinning emas. Padar va volida o'rniga ko'rilgan qaynona-qaynotalar kelinning xizmatlarini ehson, deb qabul qilishlari, kelin esa ularga xizmat qilishni sharaf, deb bilishi kerak. Bu munosabatlar zamirida kelinga uy xizmatchisi sifatida qarash adolatdan emas. Shu bilan birga, kuyovning kelin qalbida o'zining qarindoshlariga nisbatan yuksak hurmatni shakllantira olishi, qizning tarbiyasi asosiy ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alimov Usmonxon. "Oilada farzand tarbiyasi" U.Alimov; mas'ul muharrir A.Mansur. – Toshkent: "Movarounnahr" nashriyoti, 2012-yil
2. Гулямов Л. "Невероятное путешествие арминиуса вамбери" //Uzbekistan airways.
3. Umumiy psixologiyadan izohli lug'atlar to'plami. Tojiddinova L. "Globe edit". 2023-yil
4. Вишневский а.г. Избранные демографические труды. – москва: наука, 2005. – 120 с.
5. Тышкевич в.п основные направления исследований семейного домохозяйства современной социальной рыночной экономике на примере германии. – москва: макс-пресс, 2009. – с. 211-212.